

Jahon banking O'zbekistondagi faoliyati

O'ZBEKISTON	2020
Aholi soni (million kishi)	34,2
YaIM joriy narxlarda (AQSh doll.)	59,9
YaIM aholi jon boshiga (AQSh doll.)	1,751
Tug'ilganda kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish (yil)	71,7

Kontekst

2017-yildan buyon O'zbekiston o'z iqtisodiyoti va jamiyatini o'zgartirishda salmoqli o'sishga erishdi. Hukumat hozirda ishlab chiqarish faktorlari bozorlarining yo'qligi va iqtisodiyotda davlatning iqtisodiy ustunligi kabi tarkibiy cheklolarni bartaraf etishga qaratilgan islohotlarning navbatdagi bosqichiga o'tmoqda.

COVID-19 pandemiyasining ta'siriga qaramay, jumladan narxlarni liberallashtirish hamda ichki va tashqi savdodagi to'siqlarni bartaraf etish bo'yicha olib borilgan islohotlar tufayli mamlakat iqtisodiyoti Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasidagi 2020-yilda salbiy o'sishning oldini olgan kam sonli davlatlardan biri bo'ldi.

Hukumat 2026 yilga borib kambag'allikni qisqartirish va 2030 yilga borib daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan mamlakatlar qatoriga kirish niyatini e'lon qildi. Ushbu ambitsiyali maqsadlar O'zbekistonning barqaror va inklyuziv bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonini jadallashtirish bo'yicha yanada katta sa'y-harakatlarni talab qiladi.

O'rta muddatli istiqbolda iqtisodiy o'sishga erishish va kambag'allikni qisqartirish sur'atlarini tezlashtirish bilan bir qatorda, hukumat ijtimoiy himoya tizimlari samaradorligini oshirish, mehnat bozorida sharoitlarni yaxshilash, sog'liqni saqlash va ta'limni rivojlantirishga investitsiya qilishi kerak bo'ladi.

Hukumat pandemiya oqibatlarini yumshatish uchun zarur choralarni ko'rgani sababli, 2021-yilda mamlakatning YaIM o'sishi 6,2 foizgacha tezlashishi kutilmoqda. Bunda muvaffaqiyatlar global iqtisodiyotning yaxshilanishiga hamda xususiy sektorning o'sishini oshirilishiga, hukumatning iqtisodiyotdagi ustunligini pasaytirilishiga va fuqarolarning iqtisodiy munosabatlardagi faolligini oshirishga qaratilgan tarkibiy islohotlarning borishiga bog'liq bo'ladi.

Jahon banki portfeli

Ishlab turgan loyihalar soni:	26
Kreditlar (AQSh doll.):	4,8 mlrd
XTTB (AQSh doll.):	1,7 mlrd
XTA (AQSh doll.):	3,1 mlrd

Strategiya

Jahon bankining O‘zbekistondagi joriy dasturi 2016–2020-moliyaviy yillar uchun Mamlakat bilan hamkorlik dasturi (MHD) da bayon etilgan. 2018-yilda unga bir yil avval ishga tushirilgan islohotlar dasturini amalga oshirishda hukumatga ko‘maklashish maqsadida o‘zgartirishlar kiritilgan.

Jahon bankining O‘zbekiston hukumatiga amaldagi MHD doirasidagi yordami quyidagi ustuvor yo‘nalishlarga qaratilgan: i) bozor iqtisodiyotiga barqaror o‘tish; ii) davlat muassasalarini isloh qilish va qarorlar qabul qilish jarayonida fuqarolarning faolroq ishtirok etishi; va iii) sog‘liqni saqlash va ta‘lim sohalarini rivojlantirishni o‘z ichiga olgan inson kapitaliga investitsiyalar.

2020-yilda amaldagi MHD hukumatga COVID-19 pandemiyasining fuqarolar salomatligi va farovonligiga, shuningdek, mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta‘sirini yumshatishda yordam berish uchun hukumat ehtiyojlariga moslashtirildi.

Jahon banki hozirda [O‘zbekiston iqtisodiyotining Kompleks diagnostik tadqiqotini \(KDT\)](#) yakunlamoqda va 2022–2026-moliyaviy yillarga mo‘ljallangan yangi MHD ni ishlab chiqish rejalarini amalga oshirishni boshlamoqda.

KDT - Jahon banki mijoz-davlatlar uchun o‘rtacha har besh yilda bir marta tayyorlaydigan tahliliy hujjatidir. Unda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy muammolari va imkoniyatlari belgilab berilgan.

O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun KDT mamlakatni rivojlantirishning to‘rtta asosiy imkoniyatlariga e‘tibor qaratadi: i) dinamik va inklyuziv xususiy sektorni rivojlantirish; ii) samarali va hisob beruvchi davlat muassasalarini yaratish; iii) odamlarga va inson kapitaliga investitsiya qilish; va iv) yanada barqaror va ekologik toza iqtisodiy o‘shish modeliga o‘tish. KDT mamlakat bilan hamkorlikning yangi dasturi doirasida Jahon banki va O‘zbekiston o‘rtasidagi hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlarini belgilaydi.

Yangi MHDda 2022–2026-moliyaviy yillarda Bank hukumatga ko‘rsatadigan moliyaviy va tahliliy yordam miqdorlari ko‘rsatilgan. Hokimiyat undan barqaror va inklyuziv bozor iqtisodiyotini barpo etish maqsadida kompleks iqtisodiy islohotlarning navbatdagi murakkab bosqichini amalga oshirishda foydalanishi mumkin.

Hamkorlikning asosiy yo'nalishlari

2017 yildan beri Jahon banki O'zbekistonga moliyaviy, texnik va tahliliy yordamini anchagina oshirdi. U hukumatning keng qamrovli bozor islohoti dasturini amalga oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

Bugungi kunda Jahon bankining O'zbekistondagi mamlakat dasturi hajmi bo'yicha Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasida Turkiyadan keyin ikkinchi o'rinda turadi. 2021-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, u umumiy qiymati qariyb 4.8 milliard AQSh dollarilik 26 ta loyihadan iborat. Ular Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankining (XTTB) 1.7 milliard AQSh dollari miqdoridagi kreditlari va Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasining (XTA) 3.1 milliard AQSh dollariga yaqin miqdoridagi imtiyozli kreditlari hisobidan moliyalashtiriladi (XTTB va XTA Jahon Banki Guruhiga kiradilar).

Ushbu loyihalar davlatning muhim sohalardagi harakatlarini qo'llashga qaratilgan, jumladan, makroiqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, suv resurslari, irrigatsiya va drenaj tizimlarini boshqarish, sog'liqni saqlash, ta'lim, suv ta'minoti, energetika, transport, aholini ijtimoiy himoya qilish, shahar va qishloq infratuzilmalari, innovatsiyalarning milliy tizimlari, soliq ma'muriyati tizimlari va pandemiyaning fuqarolar salomatligi va mamlakat iqtisodiyotiga ta'sirini yumshatish kabi sohalardagi sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlash imkonini beradi.

Iqtisodiyotdagi so'nggi o'zgarishlar

O'zbekistonda YaIM o'sishi 2020-yilda 1,7 foizgacha sekinlashganidan so'ng, 2021-yilning birinchi yarmida u 6,2 foizgacha oshdi. Sanoat va xizmat ko'rsatish sohasidagi kuchli o'sish qishloq xo'jaligidagi zaif o'sishni kompensatsiya qildi. Uy xo'jaligi daromadlarining oshishi, ichki investitsiyalar hajmining oshishi, inqirozga qarshi choralarni amalga oshirish uchun byudjet mablag'lari sarflanishining davom ettirilishi, shuningdek, soliq imtiyozlari 2021-yilda iqtisodiyotning barqaror o'sishiga xizmat qildi.

Inflyatsiya 2020-yil iyundagi 14,7 foizdan 2021-yil iyun oyida 11 foizgacha pasaydi. Iqtisodiyotning tiklanish jarayonida ishsizlik darajasi 2020-yilning birinchi yarmidagi 13,2 foiz va 2020-yil oxiridagi 10,5 foizdan 2021-yilning birinchi yarmida 10,2 foizga tushdi. Ishsizlik darajasi hali pandemiyadan oldingi darajaga (taxminan 9%) yetmadi va ayollar va yoshlar uchun bu ko'rsatkich o'rtachadan yuqoriligicha qolmoqda.

Eksportning umumiy hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 12,3 foizga oshdi. Import 2021-yilning birinchi yarmida xususiy iste'mol va investitsiyalar o'sishi hisobiga 14,3 foizga o'sdi. Pul o'tkazmalarining kuchli oqimi (2021-yilning birinchi yarmida YaIMning 8,7 foizini tashkil qilgan) salbiy savdo balansini qisman kompensatsiya qilishga yordam berdi. Shu sababli joriy hisob taqchilligi 2020-yilning birinchi yarmidagi YaIMning 7,3 foizidan 2021-yilning birinchi yarmida YaIMning 10 foizigacha oshdi.

2021-yilning birinchi yarmida byudjet taqchilligi YaIMning 5,4 foizini tashkil etdi. Maqsadli davlat kreditlari hajmining kamayishi va tiklanayotgan iqtisodiyotdan soliq tushumlarining ko'payishi aholini ijtimoiy himoya qilish, sog'liqni saqlash va infratuzilmani rivojlantirishga byudjetdan sarflangan mablag'larning o'sishini kompensatsiya qildi. Nominal YaIMning o'sishi 2021-yilning birinchi yarmida davlat qarzining YaIMga nisbatan 38,5 foizigacha pasayishiga xizmat qildi.

Iqtisodiy rivojlanish istiqbollari

2021-yilda O'zbekistonda YaIM o'sishi 6,2 foizga yetishi kutilmoqda. Biroq, pandemiya yangi to'lqinlarining global va milliy iqtisodiyotga ta'siri davom etayotganligi sababli bu prognoz noaniqligicha qolmoqda.

Ichki investitsiyalar, xalqaro savdo va xorijdan pul o'tkazmalarining tiklanishi 2021-yilda iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, ishsizlik va kambag'allikni qisqartiradi. Aholini emlash sur'atini tezlashishi, global iqtisodiyotdagi buzilishlarning kamayishi barobarida 2022-yilda mamlakat YaIMning o'sish sur'atlari kuchli bo'lishda davom etadi va 5,6 foizga yetishi kutilmoqda.

Investitsiya loyihalari uchun mashinalar, asbob-uskunalar va xomashyo importi tiklanishi, hamda oltin eksporti 2020-yildagi rekord darajadan qisqarishi barobarida to'lov balansining joriy hisobi taqchilligi 2021-yilda YaIMning 5,9 foizini tashkil etishi kutilmoqda. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 2021-yilda past darajada saqlanib qolishi va 2022-yilda qisman tiklanishi kutilmoqda.

Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning davom etishi, qishloq infratuzilmasini rivojlantirishga davlat investitsiyalarining kiritilishi, shuningdek, emlash kampaniyasi xarajatlari 2021-yil oxirigacha davlat xarajatlarini qo'shimcha oshiradi. Bu byudjetga soliq tushumlarining ko'payishi, qazilma boyliklardan keladigan daromadlar va davlat korxonalarini xususiylashtirishdan olinagan daromadlar hisobiga qisman kompensatsiya qilinadi. Bu 2021-yilda prognoz qilinayotgan YaIMga nisbatan 5,5 foizli byudjet taqchilligiga olib keladi. Defitsit davlat qarzining o'sishi hisobiga moliyalashtiriladi, bu qarz 2021-yil oxirigacha YaIMga nisbatan 40,6 foizga yetishi prognoz qilinmoqda.

COVID-19 pandemiyasi bo'yicha noaniqlik va 2023-yilga e'lon qilingan QQS stavkasining pasayishi o'rta muddatli istiqbolda byudjet taqchilligini oshishiga yordam beradi. Iqtisodiyotning barqaror tiklanishi, inqirozga qarshi choralarni bosqichma-bosqich bartaraf etish va soliq ma'muriyatchiligida soliqqa tortish bazasini kengaytirishga qaratilgan islohotlar qilish byudjet taqchilligini kamaytirishga va davlat qarzini 2023-yil oxiriga qadar YaIMga nisbatan qariyb 42 foiz darajasida barqarorlashtirishga yordam beradi.